

MAKTAB O‘QUVCHILARIGA ART-PEDAGOGIKA VA ZAMONAVIY O‘QITISH USULLARI ORQALI ESTETIK TARBIYA BERISH**Paxratdinova Ulbolsin Kerimberdiyevna***Nukus davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada maktab o‘quvchilariga Art-pedagogika va zamonaviy o‘qitish usullari orqali estetik tarbiya berish masalasi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *yosh avlod tarbiyasi, estetik tarbiya, Art-pedagogika, zamonaviy o‘qitish usullari, zamonaviy yondashuv.*

Аннотация: *В статье рассматривается вопрос эстетического воспитания школьников посредством арт-педагогике и современных методов обучения*

Ключевые слова: *воспитание молодого поколения, эстетическое воспитание, артпедагогика, современные методы обучения, современный подход.*

Abstract: *The article examines the issue of aesthetic education of schoolchildren through art pedagogy and modern teaching methods.*

Keywords: *education of the younger generation, aesthetic education, art pedagogy, modern teaching methods, modern approach.*

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘z nutqida: Yuksak bilimli, dunyoqarashi keng, zamonaviy fikrlaydigan, texnologik savodxon yoshlari ko‘p bo‘lgan yurtda tinchlik va taraqqiyot, o‘zaro jipslik hamisha barqaror bo‘ladi. Yoshlarimizga sifatli ta‘lim va tarbiya berish, zamonaviy kasb va hunarlar, xorijiy tillarni o‘rgatish, hayotda munosib o‘rin topishi uchun zarur sharoitlar yaratish eng asosiy vazifamiz va burchimizga aylangan” – degan edi [1]. Darhaqiqat, ushbu fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, bugungi kunda yosh avlodga, maktab o‘quvchilariga zamonaviy usulda ta‘lim berish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunda art-pedagogikasi orqali yoshlarni estetik tarbiyalashning dolzarbligi yanada ortmoqda.

Art-pedagogik yondashuv estetik tarbiyani samarali tashkil etishning zamonaviy va innovatsion vositalaridan biridir. U nafaqat o‘quvchi shaxsini estetik rivojlantiradi, balki uni erkin fikrlovchi, ijodiy shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Art-pedagogikaning estetik tarbiyadagi afzalliklari quyidagilardan iborat:

- San‘at orqali o‘rgatish: bu metod orqali bolalar hissiy jihatdan ta’sirlanib, bilim olganini ongli ravishda qabul qiladi;
- Ijodiy faoliyatga yo‘naltirish: har bir o‘quvchining o‘z imkoniyatlari va qiziqishlariga muvofiq estetik faoliyatga jalb qilinishi;
- Integratsiya imkoniyati: art-pedagogika boshqa fanlar (ona tili, tarix, biologiya) bilan uyg‘unlashgan holda estetik ta’sirni kuchaytiradi;
- Shaxsiy yondashuv: har bir bolaning hissiy holatini inobatga olgan holda estetik tarbiya olib boriladi.

Mavzu doirasida tadqiqot olib borar ekanmiz, estetik tarbiya deganimiz nima? U nimaga xizmat qiladi? – degan savol paydo bo‘ladi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu savolga quyidagicha javob berilgan: “Estetik tarbiya (nafosat tarbiyasi) - bu bolalarga voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish hamda to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va hayotga go‘zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir”[2:24]. Estetik tarbiya - bu shaxsning go‘zallikni qabul qilish, qadrlash va yaratish qobiliyatini shakllantirish jarayoni bo‘lib, maktab yoshidagi o‘quvchilarni madaniy va badiiy jihatdan rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta‘lim tizimida san’at pedagogikasi yoki art-pedagogika metodlari o‘quvchilarning ijodiy va estetik fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vositalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, zamonaviy o‘qitish usullari va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash estetik tarbiyaning sifatini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida estetik tarbiya jarayonida art-pedagogikaning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- San’atni anglash va qadrlash;
- Badiiy didni rivojlantirish;
- Ijodiy fikrlash va ijodkorlikni shakllantirish;
- Shaxsiylik va o‘zini ifoda etish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Zamonaviy pedagogika usullari ta‘lim jarayonini interfaol, ko‘p funksiyali va o‘quvchiga yo‘naltirilgan qiladi. Estetik tarbiya jarayonida quyidagi zamonaviy metodlar samarali qo‘llaniladi:

- Muammoli o‘qitish;
- Rolli o‘yinlar va drammatizatsiya;
- Guruh bo‘lib va loyiha asosida ishlash. Bu usullar orqali o‘quvchilar estetik jarayonlarga faol jalb qilinib, o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniga ega bo‘ladilar.

Shu bilan birgalikda, multimedia vositalari san’atni o‘rganishda va yaratishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli grafik dasturlar, interaktiv taqdimotlar va video materiallar orqali o‘quvchilarning diqqatini jalb etish va estetik didni rivojlantirish mumkin. Bu usul o‘quvchilarning san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ham tanishtiradi.

Bundan tashqari, kreativ o‘qitish va loyiha asosida ta‘lim mavjud. Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarga mustaqil ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkonini beradi. Estetik tarbiya sohasida bunday yondashuv o‘quvchilarni san’at asarlari yaratishga, tanqidiy fikrlashga va o‘zaro hamkorlikka o‘rgatadi. Bu metod bolalarning estetik saviyasini yanada oshirishga yordam beradi [3].

Estetik tarbiya maktabda boshlanib, butun hayot davomida davom etadi. Bu tarbiya turi insonda go‘zallikka nisbatan muhabbat, ijobiy hayotiy pozitsiya va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, maktab pedagoglari estetik

tarbiyaning mohiyatini chuqur anglab, uni dars jarayonlari va darsdan tashqari faoliyatga samarali integratsiya qilishi zarur.

Estetik tarbiya pedagogik faoliyatda bolani estetik jihatdan rivojlantirish, uni hayotdagi go'zallikni qadrlaydigan, uni yaratishga intiladigan ijodkor shaxs sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Bu borada o'qituvchining tashabbuskorligi, metodik mahorati va zamonaviy yondashuvlarga tayangan faoliyati muhim o'rin tutadi. Shu sababli, estetik tarbiyani ta'lim jarayonining har bir bosqichiga puxta integratsiya qilish pedagogik zaruratdir.

Yosh avlodni estetik tarbiyalash o'ta muhimdir. Sababi, go'zallikga oshiq bo'lgan qalbdan faqat ezgulik nuri taraladi. Go'zallik va nafosat bilan ulg'aygan insondan faqat yaxshilik kutish mumkin. Shu sababli, pedagoglar, olimlar tomonidan art-pedagogikasi orqali estetik tarbiyalash diqqat qaratish zarur.

Umuman olganda, san'at turlari estetik tarbiyada bir-birini to'ldiradi va bolalarning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Art-pedagogika nafaqat san'atni qadrlashni o'rganadi, balki o'z his-tuyg'ularini ifodalash va boshqalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [Prezident: Yoshlarimizga sifatli ta'lim berish, kasb va xorijiy tillarni o'rgatish — eng asosiy vazifamizga aylangan – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta; \[www.gazeta.uz\]\(http://www.gazeta.uz\)](#)
2. Islamova G.M., "Estetik tarbiya tushunchasining mohiyati va uni tadbiq etishning umumnazariy asoslari"., Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/43428>
3. Ta'lim berishning zamonaviy usullari www.wikipedia.org
4. Egamberdiyeva, F. (2022). "San'at va ta'lim integratsiyasi", Ilmiy ishlar to'plami, 3(7), 10–17.